

BIRINCHI KITOBIM



BAXT  
KALITI


TOZAGUL JUMANOVA



821  
J. 84

Книга должна быть  
возвращена не позже  
указанного здесь срока

Количество предыдущих  
выдач




- 1639 -

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
"TJOD" JAMOAT FONDI

TOZAGUL JUMANOVA

## BAXT KALITI

Ertaklar



TOSHKENT  
"ADABIKOT" O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
2020 TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

## TOZA QALB BITIKLARI

Nashr uchun mas'ul:

**Joirabek JAHON**

Mas'ul muharrir:

**Luqmon BORIXON**

Yosh ijodkor Tozagul Jumanovaning ushbu to'plam-dagi jajji bitiklari manoq bilan o'qiladi. Darhaqlqat, tiniq, jonli tasvirlar o'quvchini o'ziga rom etadi. Tozagul – bolaparvar, oilaparvar qalamkash. U bolajonlar ko'nglimi, kechimlarini teran anglaydi, shuningdek, tabiatni, ionivorlar, qushlar olamini ham yaxshi biliadi. Ertak tariqasida qalamga olingan libratl voqealar, kechimmlar bolajonlarimizning ma'naviy olamini boyittishga hissa qo'shishiga ishonamiz.

*Ushbu kitob 2018-yilli O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarning Zomin seminarida nashriga tasvira qilinib, "Ijod" jamoat fonda tomonidan moliyalashtirilgan.*

Bir qaraganda, bolalarbop asarlar yozish oson va jo'n tuyiladi. Axir, aldagani bola yaxshi, degan hazilomuz naql bor-ku. Aslida unday emas. Jajji o'quvchiga manzur bo'ladijan, ularga zavq-shavq ularshadigan asarlar bitish juda qiyin, sermashaqqat. Shu niyatda qalam tutgan ijodkor, avalo, bolarcha beg'ubor, toza qalb egasi bo'lishi kerrak.

Yosh ijodkor Tozagul Jumanova qalamiga mansub jajji bitiklar bilan tanishar ekanman, ko'nglimdan xuddi shunday o'ylar otdi. Chunki Tozagulda yuqorida tilga olingan kabi xislatlar mavjud. U – bolaparvar, oilaparvar qalamkash. Tozagul Jumanova jajji farzandlar ko'nglini, kechimlarini teran anglaydi, shuningdek, tabiatni, ionivorlar, qushlar olamini ham yaxshi biladi. Aynan shu omillar uning ertaklari pisniq-puxta, ta'sirchan chiqishini ta'minlagan.

Jumladan, to'plamdan o'rinn olgan "Qarg'a va Bulbul" ertagi o'zining kutilmagan yakuni, ma'nodorligi bilan ajralib turadi. Bir qarashda sodda, yengil tuyiladigan bu ertakni mutolaa qilgan kattalar ham o'zlariga tegishli jiddiy xulosalar chiqarishi mumkin.

ISBN 978-9943-6780-8-8

© T. Jumanova, 2020  
© "Adabiyot", 2020

To'plamdag'i "Bo'ri va Tulk'i" ertagi ham quvnoqligi, bolalarbop yumorga boyligi, eng muhimi, ibratlari xulosasi bilan e'tiborga loyiq.

Umuman olganda, Tozagul Jumanovaning barcha ertaklari ham bolalar tasavvuriga dunyoqarashiga mos, ta'sirchan. Bolalarni ham, kattalarni ham o'ylashga, fikr yuritishga undaydi. Albatta, bunday ijodiy yutuqlar bejiz emas. Barchasi yosh qalamkashning tinim-siz izlanayotganidan, ustoz adiblar asurlarini o'qib-o'rganayotganidan darak, jumladan, bu yosh ijokarga Andersen, aka-uka Grimmlar singari dovrug'i doston ertakchi adiblarning ijobiy ta'siri sezilib turibdi.

Toza qalb, toza ko'ngil bilan jajji farzand-larimiz ma'naviy olamini ko'zlab qo'liga qalam tutgan Tozagul Jumanovaga baland ijodiy parvozlar tilab qolamiz.

### BAXT KALITI

Qalin o'rmonda bir toshbaqa yashardi. U har kuni atrofni kuzatib, negadir o'zini judayam baxtsiz his qilar ekan. "Mening qushlarni-kiday shirin ovozim yo'q, boshqa momiq hayvonlar singari tez ham yugurolmayman. Yirtqich hayvonlarnikidek o'tkir tishlarim va panjalarim yo'q", – deb tushkunlikka tushibdi. O'zining baxtsiz ekanimi aytilib, Ona Tabiatga shikoyat qilibdi. "Nega men bir umr yelkam-dagi tosh kosamni sudrab yurishga majbur-man?" – debdi.

Shunda Ona Tabiat unga imkon bermoqchi ekanini, buning uchun baxt kalitini topib, olib kelishini ayтибди.

Baxt kaliti o'rmon chetidagi qurbaqalar yashaydigan botqoqlik ichiga tushib ketgani-ni ayтибди.

– O'sha kalitni olib kelsang, men senga o'zing xohlagan baxt eshigini ochaman, – deb va'da beribdi.

Toshbaqa vaqtini paysalga solmay yo'nga tushibdi. Yo'l yurib ketaveribdi, ketaveribdi. Yonidan bo'ri quyonni quvlab o'tib ketibdi.

### Luqmon BO'RIXON

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, yozuvchi.*

Jurist, tarixchi, istorik, qazig'ishchilik, alim, yozuvchi. Tashkent. Toshbaqa vaqtini paysalga solmay yo'nga tushibdi. Yo'l yurib ketaveribdi, ketaveribdi. Yonidan bo'ri quyonni quvlab o'tib ketibdi.

- Voy, bechora quyon, yaxshiyam, quyon bo'lib tug'ilmabman, - debdi Toshbaqa va yo'lida davom etibdi.

Bir payt ovchilarga ko'zi tushibdi. Ular bo'rini izini poylab unga o'q uzishibdi. Toshbaqa qo'rqqanidan toshkosasiga kirib olibdi.

- Voy bechora bo'ri! Yaxshiyam, bo'ri bo'lib tug'ilmabman, - debdi Toshbaqa va yo'lida davom etibdi.

Qushlarning chug'urlashini eshitib daraxtga qarabdi, qarasa, qushning inidagi mitti polaponlar sari ilon sudralib kelayotgan ekan. Ona qush nima qilishini bilmay, atrofdagi qushlarni yordamga chaqiribdi.

- Eh, yaxshiyam, qush bo'lib tug'ilmagan ekanman, - deb yo'lida davom etibdi.

Ketaveribdi, ketaveribdi va nihoyat, o'sha qurbaqlar yashaydigan botqoqlikka yetib kelibdi. Botqoqlik juda ham chuqur va badbo'y ekan. U yerdag'i qurbaqlar esa shu badbo'y botqoqlikda yashashar ekan. Toshbaqa buni ko'rib:

- Yaxshiyam, qurbaqa bo'lib tug'ilmabman, - debdi.

U qurbaqlardan botqoqlikdagi baxt kalitini olib berishini iltimos qilibdi.

Qurbaqlar suuga sho'ng'ib baxt kaltini topib chiqibdi.

Toshbaqa qarasa, baxt kaliti suv tagida jundayam zanglab, yashil tusga kirib, suvo'tlari yopishib, eskirib ketgan ekan. Buni ko'rghan Toshbaqa o'ziga-o'zi debdi: "Baxt kalitining ko'rinishi shu bo'sa, u ochgan eshik orti qanday bo'arkan?!" Yo'q, men Toshbaqa bo'lib tug'ilganimdan xursandman! Menga baxt kaitining aslo keragi yo'q!"

U boshqqa jonzzotlarga qarab, aqlini ishlatib fikr qilibdi va o'zini toshbaqa bo'lib yaralgani ga shukur qilibdi.

Ehtimol, men baxt kalitini qidirib xato qilgandirman.

- Ha, men seni shu yerga boshlab keldim, senga o'zing izlagan baxting kalitini ko'rsatdim... Aslida mening bagrimda hamma o'zbaxti bilan yashaydi, - debdi Ona Tabiat, Toshbaqaning yelkasini shamollar bilan silab.

Toshbaqa boshini o'ynoqlatib qo'yibdi.

- Rahmat senga, Ona Tabiat! Meni shunday yaratganing uchun, - debdi.

U o'zini borligicha yaxshi ko'rib, baxtli va uzoq umr kechiribdi.



Biroq mitti Bulbul bunga qarshi chiqibdi.

– Yo'q, Qarg'avoy, chamanzorda hamma qushlar ham xushovoz, ularning bittasi menman, – debdi va yoqimli kuylab beribdi.

Bahs uzoq davom etibdi.

Oxiri Qarg'a shart qo'yibdi:

– Odamlar yashaydigan joyga borrib kuylaymiz, odamlarga qaysi birimizning ovozimiz yoqsa, o'sha g'olib bo'ladi.

Bulbul shartga rozi bo'lidi.

Ikkisi ham odamlar yashayotgan bog'ga uchib kelib, daraxt shoxiga qo'nibdi.

Birinchchi bo'lib qora Qarg'a kuylabdi:

– Qag'-qag'-qag'-qag'!

Odamlar: "Bunchalar ham xunuk, yoqimsiz ovoz bo'lmasa, yomon xabar olib kelgandek, kisht-kisht", – deb Qarg'ani quvib solibdi.

Qarg'a pir uchib tomga qo'nibdi va bulbulga "Endi sening navbatning, kuylay qol", – debdi di mehribon ovozda.

Keyin bulbul sayray boshibaldi.

"Bunchalar yoqimli sayraydi bu qush. Xuddi yoqimli kuya o'xshaydi", – deb odamlar Bulbulning ovoziga mahliyo bo'lib tingishibdi. G'oliblikni qo'lg'a kiritgan bulbul maqtovlardan juda sevimib to'xtovsiz kuylayeriveribdi.

**QARG'A BILAN BULBUL**

Kunlarning birida Chamanzorda qushlar kimning ovozi eng yoqimli deb bahslashib qolishibdi.

- Qag'-qag'! Chamanzorda eng yoqimli tvush meniki, – debdi Qarg'a kekkayib.
- Qolgan qushlar bahsdan qochib, qora Qarg'aning gapini ma'qullabdi.

Shu payt odamlar to'r tashlab, uni ush-lashibdi. Bunday yoqimli qushning ovozini har kuni eshitishni xohlab, Bulbulning uchib ketishiga yo'l qo'ymabdilar va qafasga solib, daraxt shoxiga ilib qo'yishibdi.


Daraxt shoxiga makkor Qarg'a kelib qot-nibdi va so'z boshlabdi:

– Qora Qarg'a bilan bahslashganning ahvoli shunday bo'ladi. Sen men qilgan hyylan-ing tuzog'iga ilinding, endi Chamanzorning xushovozi menman, – deb pirr etib uchib ketibdi.

Bulbul esa haq bo'lsa-da, makkor Qarg'a bilan bahs boylagani uchun afsuslanib, qafas ichidan Chamanzor tomon uchib ketayotgan Qarg'a ortidan termilib qolibdi.

Ko'rdingizmi, bolalar, chamanzorga egalik qilish uchun Qarg'a qanday ham yomon ish qildi. Axir, haqiqatni baribir hamma biladi-ku. Bunday yo'l bilan birinchi va eng zo'r bo'lib olish juda ham uyatlari ish.

Bulbul ehtiyyot bo'llishi kerak edi. Yomonga yaqin yursang, qorasi yuqadi, deyishadi. Ah-moqlar bilan tortishmaslik kerak.



### BO'RI BILAN TULKI

Qadim zamonda Bo'ri va Tulki qo'shni bo'lgan ekan. Tulkivoyning bitta xo'roz va bitta tovug'i bor ekan. Kunlardan bir kuni kechasi qattiq shovqindan Tulkivoy uyg'onib ketibdi. Shoshilib hovliga chiqsa, qo'shni Bo'rivoy katakdan chiqib, devor osha qochib borayotgan ekan.

– Xap senimi, Bo'rivoy, shoshmay tur! – deb Tulkivoy uyg'a kirib ketibdi.

Ertasi kuni hech nima bilmagandek Tulkivoy Bo'rivoynikiga kelibdi.

– Bo'rivoy, yaxshiman, mabodo mening tovug'im sening hovlinga o'tmadimi?

– Yo'q, Tulkivoy, ko'rmadim, biznikiga kelmadim, istasang, izlab ko'rishing mumkin, – debdi Bo'ri qormimi silab.

– Ertalabdan beri qidiraman, topolmayman, og'ir kasal edi, bechora tovug'im. Unga dori berayotgandim.

– Nima qilasan kasal tovuqni? Olib qolgan-  
dir, balki, – debdi Bo'rivoy.

– O'rgan bo'lsa, mayli-ku-ya, birorta hay-  
von yeb qo'yagan bo'lsin. Liekin dardi og'ir  
edi-da, bechoraning, – debdi Tulkivoy ayyor-  
lik bilan. – Tovug'im har kuni ikki dona tuxum  
qo'yardi. Endi qaysi hayvon tovug'imni yegan  
bo'lsa, o'sha asta-sekinlik bilan tovuqqa ayla-  
na boshlaydi. Avvaliga u tuxum qo'yadi. Keyin esa  
tovuqqa o'xshab qaqillay boshlaydi. Keyin esa  
patlari ko'payib, tovuqsimon maxluqqa ayla-  
nadi. Ha, mayli, Bo'rivoy, seni ham ertalabdan  
bezovta qildim, kechirasen. Agar tovug'imni  
ko'rsang, aytgin, uga tezroq qaytsin, – deya  
Bo'rivoyning yotog'iga sekin ikkita tuxumni  
yumatlatib yuboribdi.

Tulkivoyni ko'chaga kuzatib qaytgan Bo'ri

yotog'idagi ikki dona tuxumi ko'rib, pesho-  
nasidan sovuq ter chiqib ketibdi. Qo'rqa-  
nidan "Qaq" deb yuboribdi. Uyidan chopib  
chiqib Tulkivoynikiga shoshibdi.

– Tulkivoy, hoy, Tulkivoy! Eshigingni tez-  
roq och! Yordam ber, Tulkivoy!

Tulki eshikni ochgandan so'ng Bo'rivoy  
shoshib gap boshlabdi:  
– Tulkivoy, Tulkivoy, meni kechir, sening  
tovug'ingni men yegandim. Yotog'inga mun-  
doq qarasam, ikki dona tuxum tug'ibman.

Ahvolim tang, Tulkivoy! Yordam ber, iltimos!  
Endi men nima qilaman?!

Bo'ri uvvos tortib yig'lab yuboribdi. Tulki

esa Bo'riga achingan bo'libdi.

– Davosi bor, albatta. Uning uchun echki  
go'shtidan sho'rva qaynatib, suvini ichishing  
kerak. Go'shtini yeb qo'yma tag'in! Keyin ech-  
kining terisiga o'raniib, bir kun yotishing ke-  
rak. Shunda sen avvalgi holingga qaytasan.

– Mayli, roziman, bo'riliqimcha qolsam  
bo'lgani, – debdi Bo'ri.

So'ng uyiga kelib, echki go'shtidan sho'rva  
qaynatibdi. Sho'rvaning hidi Tulkivoyning di-  
mog'iga kelib urilganda, u asta-sekin dumini  
o'ynatib Bo'rimikiga chiqibdi.

Tulki mazza qilib echki go'shtini yebdi.  
Bechora Bo'ri esa bir qozon sho'rvari ichib-  
di. Tulki Bo'rin i echki terisiga o'rabi. Bir kun  
qimirlamay yotishni uqtiribdi va o'zi uyiga ra-  
vona bo'libdi.

Ochko'z va laqma Bo'rinii Tulkivoy shun-  
day jazolabdi. Agarda ochko'z Bo'ri qo'shni  
Tulkivoyning tovug'iga ko'z olaytirmaganda  
edi, u o'zining echkisidan ham ayrılmagan  
va mana shunday kulguli ahvolga tushmagan  
bo'lar edi. Birovning moliga hech qachon ko'z  
olaytirmaslik kerak.

## QO'ZICHOQ VA BO'TALOQ

Saharlab Cho'pon bola bo'ribosar iti bilan qo'y podasini yam-yashil qir-adirlar bag'rliga yetaklabdi. Qo'y podasi ichida quyoshdan yalt-yalt tovlanib turgan qo'ng'ir qo'zichoq podadan uzoqlashmaslik uchun sakrab-sakrab onasiga yaqinlashib olarkan. U judayam quvnoq, qiziquvchan qo'zichoq ekan. Ancha yayov yurgan qo'zichoq qir-adirlar etagidagi ariq bo'yiga suv ichgani tushibdi. Ariqdan suv ichib, endi ketaman, deb turganida ariqning u yonida suvga bo'y cho'zayotgan antiqa hayvonga ko'zi tushibdi. Qo'zichoq unga yaqinlashibdi va so'z boshlabdi.

- Salom, men Qo'zichoqman.

Ikkalasi tanishib olishibdi. Bo'taloq uch kecha-yu uch kunduz yo'l bosib chanqaganini, mashaqqatli karvon yoli haqida so'zlab beribdi. Qiziquvchan qo'zichoq bo'taloqni miriqib tinglabdi.

*Bo'taloq va Qo'zichoq  
Bo'tibdi ahil o'rtoq.  
Ikkala o'yinqaroq  
Otishibdi shataloq.*

Yevishibdilar yantoq, alandiz  
Dikrashibdi quvnoq.  
Kech tushganin ikkisi  
Unutishdilar biroq!  
Podadan ajralib toq,  
Qayga ketdi qo'zichoq?!

*Bo'ri qo'ygammi tuzoq..  
Izlashibdilar uzoq...*

O'ynab charchagan qo'zichoq butoqlar orasida uyquga ketibdi. Uning shirin uyqusini Bo'ribosar buzibdi.

- Vov-vov, qo'zichoq! Seni hamma qidirmoqda. Qani, oldimga tush, - deb Qo'zichoqni podaga boshlabdi.

Onasi va yaqinlari Qo'zichoqni ko'rib rosa xursand bo'lishibdi. Qo'zichoqqa dakkii berib, endi hech qachon podadan uzoq ketmasligini, bu hayoti uchun xavfli ekanimi uqtiribdi. Qo'zichoq bu hol takrorlanmasligini aytib, yaqinlaridan uzr so'rabi. Qorni ochib ketgani uchun onasining oldiga chopib, yelninga intilibdi.

Yillar o'tibdi. Qo'zichoq katta Qo'chqor bo'libdi. Kattakon to'dami o'zi o'tloqlarga boshlarkan. Endi uning ham ko'plab quvnoq qo'zichoqlari bor ekan. Qo'ychivonlar bilan itlar kichkina qo'zilarning irg'ishlab podadan uzoqlashib ketganimi ko'rmay qolisharkan.

Shunda Qo'chqor ularni yoniga chaqirib olarkan. Ammo u do'sti Bo'taloqni boshqa ko'rmbadi. U Bo'taloqni sog'inib tez-tezadir etagidagi ariq bo'yiga borib, do'stining keli shini kutar ekan. Balki, u mashaaqqatli karvon yo'lidan hali qaytmagandir...

Qo'chqorvoy qo'zichoqlariga do'sti Bo'taloq haqidagi sog'inch bilan tez-tez so'zlab berar ekan.

Kunlar o'tib Qo'chqorvoy qo'zichoqlarini boshlab ariq bo'yiga kelganida, ko'plab bo'taloqlar suv ichayotgan ekan. Uning qo'zichoqlari bu bo'taloqlar bilan do'stlashishibdi. Irg'ishlab chopqillashib o'ynashibdi.

Bir mahal Qo'chqorvoy o'zi tomonga ya-qinlashib kelayotgan do'stini ko'ribdi. Sevinib u bilan diyordlashibdi. Ikki do'st yillar davomida bir-birini sog'inganini aytib, miriqib suhbattashishibdi. Qo'chqorvoyning do'sti Nortuyaning ham ko'plab bo'taloqlari bor ekan va ular hozir Qo'chqorvoyning qo'zilaribilan shataloq otishayotgan ekan.

Do'stlik aloqalari yana davom etaveribdi.

Buloq bo'ydi diyordashish joyiga aylanibdi. Buloq suvi doimo oqib turar ekan. Undan ko'p jonzotlar bahramand bo'lar ekan.

Aytishlaricha, buloq hozir ham o'z atrofiga do'stlarni to'plab, uchrashshtirib turar emish.

### - 1639 -

#### SHIRIN MEVALAR

Qaldirg'och qanot yozib, qushlar chug'urlab o'lkamizga bahor keldi. Daraxtlar ham birin-ke-tin uyg'onib, o'zlariga oro berib, gulli ko'ylagini kiyishdi. Bog'ning o'rtasida Olma, Behi, O'rlik va Gilos daraxti uyqudan uyg'onib, gulli ko'yaklarini bir-biriga maqtab ko'z ko'z qillardilar.

— Assalomu alaykum, Ona zamin! Serquyosh osmon! Qadrli qo'shni daraxtlar! — debdi qiyg'os pushktikoylak kiygan O'rlik daraxti.

— Yaxshi orom oldinglarmi? Qanday tushlar ko'rdingiz qishki uyquda, qani aytib beriringlar-chi?

— Men tushimda hammadan chiroyli gul-labman, — dedi Behi daraxti.

Olma daraxti ham ko'z qushlar do'stligasi, OLYV YA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



– Tushimda meni arralab, shoxlarimni bo'laqlab, o'tin qilib yoqibdi. Voy-yey, bunchalar xosiyatsiz tush bo'lmasa, – deb shoxlarini qimirlatib qo'yibdi.

– Sen qanday tush ko'rding, Gilosxon? – debdi Olma daraxti.

– Tushimda mening mevalarimni bolalar maza qilib yeyishibdi, – deb javob beribdi Gilos daraxti.

Ularning suhbatini kapalaklar, asalarilar, quşlar zimdan tinglashar, Bog'bon boba esa daraxtlarni parvarishlab turar ekan.

Yoz kelibdi. Daraxtlar gulli liboslarini tashlab, yam-yashil ko'yaklarini kiyibdi. Hammasi mo'l hosilga kiribdi. Ularning yoniga bir quş uchib kelib: "Eshitdinglarmi? Bog'bon boboning nabiralarini ta'tilga chiqib mehmonga kelishibdi", – deb chug'urlabdi.

Shu payt bolalarining ovozi eshitilibdi, ular bog' tomon yaqinlashibdi.

– Vuuuy, qaranglar! Qanday zo'r, qip-qizil olmalar, – deb Olma daraxtining shoxlarini silkitibdi. Qizil olmalar yerga tapur-tupur tushibdi. Bolalar olmalarni yeb, shoxlarini sindirib, mayda Gilos daraxtiga yopishibdi. Uni ham rosa qiy nab, shoxlariga chiqib, maza qilib to'yguncha mevasini yeyishibdi. Giloschaning

ham qalin shoxlarimi sindirib, ozor berishibdi. Bolalar kech bo'lganda bog'dan qaytibdi. So'ngra Olma va Giloscha rosa yig'labdi.

– Nega bizning shirin mevalarimizni yeb, yana bizga buncha ozor berishdi? Bizning mevalarimiz bolalarga darmondori bo'lsa, ular uchun shirin shifobaxsh mevalar taqdимetsak, ular shox-shabbalarimizni sindirishadi, – deb bolalardan xafa bo'lishibdi.

Behi va O'rik daraxti ularni qancha ovutishmasin, ular tonggacha yig'labdilar. Oftob chiqib, kun botaveribdi. Kuz kelibdi. Daraxtlar oltinrang ko'ylagini kiyibdi. Bog'bon boba mo'l hosilini yig'ib, bozorda mo'may daromad olibdi. Bog'ga kelib, o'zi ekkan daraxtlarga rahmat aytibdi.

Sovuq shamol turib, daraxtlar birin-ketin uyquga hozirlanishibdi. Bir-birlariga shirin tushlar ayrib, uyquga ketishibdi. Qahraton qish tugab, yana bahor kelibdi. Daraxtlar tag'in gulli ko'yak kiyishibdi. Ammo bu yoz Olma va Gilos daraxti hosil bermabdi. Chunki ular beshafqat bolalardan juda xafa bo'lishgan ekan.

Ta'tilga kelgan bolalar esa mevalardan yeya olishmabdi. Shuning uchun daraxtlarga ozor bermaslik zarur. Ularning har bir shoxi bir barmog'idir.



## JO'JAXO'ROZ

Kunlardan bir kuni Jo'jaxo'roz zerikibdi va do'sti Sichqonchanlikiga mehmonga boribdi. Sichqoncha Jo'jaxo'rozni mehmon qilibdi, o'yashhibdi, kuylashhibdi. Bir payt qayyoqdan dir paxmoq mushuk paydo bo'libdi va ularga tashlanibdi. Ular arang qochib berkinib ulgurishibdi.

– Chiy-chiy-chiy, Xo'rozcha, sekinoq kuy-la, bo'masa, biz mushukka yem bo'lamiz, – debdi sichqoncha shivirlab.

– Nima uchun Mushukvoy sizlarga tuzoq qo'ygan? – deb qiziqibdi Xo'rozcha.

– U odamlarga xizmat qiladi, ular Mushuk-voyga issiq joy, non, suv beradi. U esa bizni ovlaydi. Chunki bizlar odamlarning ombor-xonadagi qishga saqlagan narsalarini yeb kun kechiramiz, – debdi.

– Qui-qu-ru-quq, endi bildim, nimaga chiy-chiyлаshingizni, siz bir umr o'g'rilik qilib,

odamlarning haqqini yeb, Mushukvoydan berkinib yashaysizlar! Men esa baland ovoz-da kuylashni yaxshi ko'raman. Yemishni ham yerdan o'zim topib yeyman! Yana odamlar don, suv beradi. Men esa ularni erta tongda qichqirib uyg'otaman. Men shivirlab gapirib o'rgannaganman! Xayr, Sichqonvoy, men senikida boshqa qololmayman. Do'st ham bo'l-mayman! Chunki birovning narsasini berux-sat olish o'g'rilik sanaladi. Men esa o'g'ri bilan do'st bo'lmayman! – deb Jo'jaxo'roz o'z uyiga yo'l olibdi.

Bu gaplardan mulzam bo'lgan Sichqoncha esa o'z mehnati bilan kun ko'rishga qaror qilibdi.

*Saharlاب Jo'jaxo'roz  
Quyoshga chiqar peshvoz.*

*Uyg otadi har tongda  
Qichqirib baland ovoz.  
Horimaydi, tolmaydi,  
Ogohlikka chorlaydi.  
O'zi mitti bo'sa ham,  
Aslo uxlаб qolmaydi.*

## ASALARI VA TANBAL ARI

Bahor kelib, quyosh charaqlab, daraxtlar gullarga burkanibdi. Asalarilar erta bahor dan asal yig'ish uchun otlanibdilar. Chelaklarini to'dirib kattakkon asal idishga birin-ketin to'ka boshlabdilar. Kun-u tun tinim bilishmas ekan. Jazirama quyoshda ham tin olmay gul-dan-gulga qo'nib uchayotg'an mehnatkash Asalarini Tanbal ari gapga tutibdi:

- Voy, bechoralar-ey, tinim bilmas ochofatlar, undan ko'ra o'ynab-kulib qolsangiz bo'lmaydimi? Hademay qish keladi, sizlar esa hali ham asal yig'ish bilan ovorasizlar.

Asalari esa Tanbal arining gaplariiga:


- Sen esa yoz bo'y'i o'ynab-kuldung. Hademay qish keladi, sen hali ham qish g'amini o'ylagaming yo'q, - deb javob beribdi.

Tanbal ari esa: "Qishgacha ulguraman", - deya uchib ketibdi.

Kunlar ortidan kunlar, oylar ortidan oylar o'tibdi.

Tanbal ari hali ham o'yin-kulgu bilan vaqtini o'tkazarkan.


Birin-ketin daraxt yaproqlari sarg'ayib, kuz kelibdi. Sovuq shamol turib, yong'ir yog'a boshlabdi. Tanbal ari yomg'irdan qochib, ini-



Asalarining uyiga borgan Tanbal ari hayratdan og'zi lang ochilib qolibdi. Qarasa, asalarilar hali uyiga qaytmagan ekan. "Naq saroyning o'zi-ya", - deb sekin asal turgan kattakkon idishga yaqinlashibdi. Idiishda oltin-daylov-iyonib turgan asalga ko'zi tushibdi.

- Voy-bo! - deb hayratlanibdi Tanbal ari. - Nahotki shunday kattakkon idishni asal bilan to'dirish mumkin bo'lsa?! Asalarilar yo'qligidan foydalanib chelagimni to'dirib asal olib ketishim kerak, - deya Tanbal ari asalni olib uchib ketibdi.

Tanbal ari yomg'irda shalabbo bo'lib, yungi zo'rg'a uchib kelibdi. Chelakdag'i asaldan totib ko'ribdi.



- Qish bo'yibir chelakkina asal yeymanni? Yaxshisi, Asalarilar yo'qligida yana bir chelak asal olib kelaman, - deb, holdan toyib char-chagan bo'lishiga qaramay, yanada kattaroq chelakni ko'tarib uchib ketibdi.

Tanbal ari asal idishning yoniga kelib, avvalo, maza qilib asal yebdi. Keyin chelakni to'diribdi. Chelak og'irlashib, asal to'la idishga tushib ketibdi. Chelakni olishga harakat qilgan Tanbal arining qanotlariga asal yopishib, ucha olmay botib boraveribdi. U ming urinmasin, chiqqa olmay, asalga g'arq bo'lib cho'ka boshibaldi.

Shu payt Asalarilar asal to'la chelaklari bilan uya qaytishibdi va asal idishdagi Tanbal ariga ko'zlarini tushibdi. Asalarilar Tanbal arini qutqarib olishibdi.

U beruxsat Asalarilarning uyiga kргgани va asal oлgанидан xijolat bo'llib, uзr so'rabi. Asalarilar Tanbal arini kechirishibdi. U kelesi yil, albatta, mehnat qilib, qishga yemish to'plab kun kechirishga va'da beribdi.

Shuning uchun tabiatga qarasangiz, birgina asalari emas, boshqa ari ham guldan asal yig'ayotgan bo'larkan.

### KALAMUSH

Qadim zamonda hamma joni vorlar o'rmon-da yashashgan ekan. O'rmonda juda ahil ikki do'st - Quyoncha va Olmaxon bo'lgan ekan. Ularning inoq do'stiligiga hamma jonzotlar, hatto o'rmon qiroli Sherxon ham havas qilar ekan. Ammo bu do'stilkni ko'rolmaydigan hasadgo'y jonzonot Kalamush ham bor ekan. Kalamush qanday qilsam bu do'stilk barham topa-

di, deb uzoq o'ylabdi va kallasiga kelgan g'ayir fikrdan xursand bo'llib yo'iga chiqibdi.

Quyoncha uyida yo'qligidan foydalantib, uning uyiga kiribdi va buvijoni to'qib sovg'a qilgan qalpoqcha va qo'lqopchani o'g'irlab chiqibdi, uni daraxt tepasida yashaydigan do'sti Olmaxonnikiga olib borib yashirib qo'yibdi. Olmaxonning qishga g'amylanган yon-g'oqlarini esa o'g'irlab, Quyonchaning uyiga olib kelibdi.

Kunlar o'tib, sovuq tusha boshlabdi. Ikki do'stni ko'rolmagan Kalamush Quyonchaning yoniga borib: "Sening qalpoqcha va qo'lqop-changni Olmaxon do'sting uyiga o'g'irlab ket-gan", - debdi.

Olmaxonnga esa uning do'sti Quyoncha na-qadar ochofatligimi, uning qishga g'amylanган yong'oqlarini o'g'irlab, o'z uyiga olib borib yashirib qo'yganini aytib, o'ylagan rejasini amalga oshirmoqchi bo'llibdi.

Ikki do'st haqiqatni bilish uchun bir-birinikiga mehmonga boribdi.


Quyoncha Olmaxonning javonidan o'zi-ning sevimli qalpoqcha va qo'lqopchasini topibdi. Olmaxon esa Quyonchanikidan bir qop yong'oqchalarini topib, Kalamushning so'zlariga ishonib do'stidan ranjibdi. Yo'l-yo'lakay ular o'rmonda uchrashib qolishibdi

va bo'lgan voqeani bir-biriga aytib berishib-di. Hammasini boshidan kuzatib yurgan daxtdagi keksa va dono Boyo'g'li bor gapni O'rmon shohi Sherxonga borib aytib beribdi. Bu pastkashlik, ikkiyuzlamachilik, yolg'on-chilik, o'g'rilik va barcha muammolarga aniqlik kiritish uchun Sherxon ikki do'st va yovuz niyatli Kalamushni chaqirtiribdi. Hamma bo'lgan voqeani boshidan eshitibdi. Kalamush qilgan aybiga iqror bo'llibdi.

Hayvonlar shohi darg'azab bo'llib, Kala-mushni o'rmondan quvg'in qilibdi.

- Bizning oramizda bunday yolg'onchi va o'g'rilarga joy yo'q! Birovning do'stligini ko'ra olmay, unga raxna solib, firib ishlata-diganlarning holi shu - quvg'indir! - deb e'lon qilibdi.

Kalamushning qilgan ishidan butun o'rmon ahli xabardor bo'llibdi. Undan barcha jonivorlar yuz o'girishibdi. Kalamush esa qilgan ishidan xijolat bo'llib, o'rmonni butunlay tarak etibdi. Qorong'i yerto'lalmi o'ziga maskan qilibdi. Barcha jonivorlardan uzoqlashib, do'stlarsiz, yolg'iz, mazmunsiz, zerikarli ha-yot kechiribdi.



## CHOL VA QIZIL OLMALAR

Qadim zamonda chol bilan kampir yashagan ekan. Chol juda oqko'ngil, saxiy, kampir esa juda mehnatsevar, halol rizqtalab ekan. Kampir uzun daraxt shoxchalaridan chiroyli savat to'qirkan. Chol esa savatlarni bozorga eltib sotib, uyiga yegulik olib kelarkan.

Bir kuni sahar turrib chol savatni bozorga olib ketibdi. Yo'lda ketayotsa, qip-qizil olmalar yerda yumalab yotgan ekan. U yerda yotgan olmalarni uvol bo'lmasin deb, savatni to'ldirib solib olibdi va yo'lida davom etibdi.

Illozorga borib savatni endi yerga qo'ygan elan hamki, olmalarga xaridor kelibdi. U olmalarning ko'chada yumatlab yotganini va savatga solib yo'lida davom etganimi ayтиб, olmaning yarmini ayloga beribdi.

Bundan xursand bo'lgan ayol cholga bir xumcha moy beribdi. Chol xursand bo'lib yarim savat olma va bir xumcha moy bilan uyiga qaytayotsa, yo'l bo'yida tegirmonchini uchratibdi.

– Buncha chiroyli olmalar?! – debdi tegirmonechi.

Chol bo'lgan voqeani aytib, savatidagi olmalarning yarminni tegirmonchiga beribdi.

Tegirmonchi cholga yarim qop un beribdi. Chol xursand bo'lib, savatni to'ldirib yo'llida davom etibdi. Uyiga borib bo'lgan voqeani kompiriga ayтиб beribdi.

Kampir ham rosa xursand bo'libdi. Ana shunaqa, saxiy va ko'ngli ochiq odamning rizqi butun bo'ladi.

## CHIN DO'STLIK

Kunlardan bir kuni Olmaxon, Zag'izg'on, Quyon va Tipratikan do'stlashishibdi. Ular o'rmondagi eng uzun va katta daraxtga in qu-rishibdi. Daraxtning yuqori qismini Zag'izg'on va Olmaxon, pastki qismini esa Quyon va Tipratikan o'zlariga boshpana qilishibdi.

Ular juda ham inoq va ahil do'stlar ekan. Ular bir-birinkiga mehmonga borishar, o'yin-kulgu qilib o'rmonda shodon yashashar ekan. Bir kuni Zag'izg'on do'stlari Quyonvoy va Olmaxonni mehmonga chaqiribdi. Tipratikanmi esa: "Mening inim tor, seming tikona-ring polaponlaringa tegib, ozor berishi mumkin, hali ular juda ham kichkina, endi tuxumdan chiqqan", - deb do'stlar bazmiga taklif qilmabdi.

Bundan Tipratikanjudahamxfabobo'llibdi va uxlaganimiga kirib ketibdi. Bazm boshlanibdi. Do'starning shodon kulgulari eshitila boshlabdi. Bir muddat o'tmay Zag'izg'onning uyiga chaqirilmagan mehmon - katta ilon kelibdi. U sekin daraxtga sudralib chiqib, Zag'izg'onning polaponlarini yeyishga shaylanibdi. Buni ko'rgan Olmaxon va Quyon qo'rqqani dan joyidan jilolmay qolibdi. Zag'izg'on esa

inidan uchib chiqib, jonholatda atrofdagilarni yordamga chaqira boshlabdi.

- Yorda-am! Yordam beringla-ar! Polaponlarimni ilon yeb qo'yadi! - deb oh-u zor qilibdi.

Lekin Zag'izg'omni hech kim eshitmabdi. Tipratikan inida uxbab yotgan mahal Zag'izg'on do'stining oh-u nolasidan uyg'onib ketibdi. Tezda inidan chiqib tepaga qarasa, yong'oq daraxtiga o'ralib Zag'izg'on iniga qarab turgan ilomni ko'rib, gap nimada ekanligini tezda tushuniibi va bor jasorattini ishga solib, ilonga tashlanibdi. Ular uzoq olishibdi va ilon mag'lub bo'llib ortga chekinibdi. Tipratikan o'z huyotini xavf ostiga qo'yib, do'stlarini va polaponlarning hayotini omon saqlab qolibdi.

U juda ham toliqib, o'z iniga kirib ketibdi. Zag'izg'on Tipratikanga aytgan gaplaridan juda ham afsuslanibdi. Haqiqiy do'stlik qadiri tushunibdi. Olmaxon, Quyon, Zag'izg'on va polaponlari bazm-u ziyoftini Tipratikan-nikida o'tkazish uchun savatlari to'la nozune'matlar bilan qahramon Tipratikanning keng uyiga tashrif buyurishibdi.

- Bizning inimiz juda ham tor, seniki bizning kiga nisbatan katta va shinam, ziyoftini senikida davom ettirsak, nima deysan? - debdi Zag'izg'on.

Bu fikr avvalroq miyasiga kelmaganidan afsusdaligini aytibdi. Tipratikan do'stlarini ko'rib juda ham quvonibidi. Zag'izg'on do'sti Tipratikandan u兹 so'rabi. Agar u bo'lganida ilon uning polaponlarini yeb qo'yishi mumkin edi-da. Har qanday vaziyatda ham yordam bergen do'stiga rahmat aytibdi. Tipratikan esa uni kechiribdi va qachon bo'lsin, do'stleri uchun yordamga tayyorilagini aytibdi. Ular tonggacha o'yin-kulgu qilishibdi. Do'stlik rishtalari yanada mustahkamlanibdi. Chin do'stlar og'ir vaziyatlarda ham bir-birini tashlab ketmasligi kerakligini, kuch ham-jihatlikda ekanini doimo yodda saqlashibdi. Agar xafa bo'lgan Tipratikan do'stiga yordam bermaganida edi, u katta ko'nglislizlikka olib kelardi. Chin do'stlar hech qachon gina saqla-maydi.

### KITOB O'G'IRLAGAN MAYMUN

Yam-yashil o'rmonda, katta tog' etagining yonida, o'rmon hayvonlarining bolalari Utki ustozdan saboq olar ekanlar. U yerga Filcha, Ayiqcha, Bo'ri, Maymun, Quyon, Jirafa kelib ta'llim olar ekan.

Kunlardan bir kuni Utki ustoz o'quvchilariga savol beribdi:

— Aytinqlar-chi, kichkintoylar, kim nimani yaxshi ko'radi?

Aytqvoy javob beribdi:

— Men uslashni yaxshi ko'raman. Qani ondi, tezroq qish fasli kelsa-yu, qishki ta'tilga chiqib, maza qilib uch oy uxtasam, — debdi. Ho'ri esa: "Men ko'proq mazali taomlar yeyishni yaxshi ko'raman", — debdi.

Quyon: "Sport bilan shug'ullanishni, ya'ni ko'proq yugurishni yaxshi ko'raman", — debdi.

Filcha esa: "Men yoyni yaxshi ko'raman, yozda maza qilib suv o'yinayman", — debdi.

Maymun:

Shirinliklar jon-u dilim, — debdi.

Jirafa bolasi esa:

— Kutubxonada kitob o'qishni yaxshi ko'raman, — debdi.

Utki ustoz yana savol beribdi:

– O'rmonda qari Toshbaqa xola pulini yo'-  
qotib qo'ydi, agar siz u pulni topib olsangiz,  
nima qilasiz?

Ayiq: "Men topib olgan pullaringa asal so-  
tib olaman va maza qilib yeyman", – debdi.

Bo'ri: "Men esa qish bo'yı yeb yotishimga  
yetarli go'sht sotib olgan bo'lар edim", – debdi.

Quyon: "Men sabzi va karam olgan bo'lар

edim, u sog'liqqa foydali", – debdi.

Filcha: "Muzqaymoq sotib olib, barchani  
muzqaymoq bilan siylar edim", – debdi.

Maymun: "Men shokoladlar, shirin-shakar  
bodroqlar olardim", – debdi.

Jirafa esa: "Men topgan pulimga kitob so-  
tib olardim-u, lekin birovning pulini ishlatish  
odobsizlikka kiradi-da. Shuning uchun men  
Toshbaqxonimni topib, unga pulini qaytarar  
edim. Chunki u juda sekin yuradi, uzoqqa  
ketib qolmasligi amiq", – debdi.

Ikki savolda ham javobi bilan Ulkkini xur-  
sand qilgan jirafani ustozni maqtabdi.

– Barakalla, Jirafajon! Ko'p kitob o'qi-  
gаниндан, бо'инг ham, aqling ham o'syapti!  
Boshqalar uslashini, shirinlikni, muzqaymoq-  
ni, o'yinmaroqlikni juda ham yaxshi ko'rishar  
ekan. Sen esa ularga aslo o'xshamaysan. Sen  
ko'plab kitob o'qishini, biliqli bo'lishni xohlay-  
san. Shuning uchun bugun senga qiziqrли ki-

tob beraman, uni o'qib bo'lib, menga olib ke-  
lasan, – debdi.

Jirafa bundan juda xursand bo'libdi.

Ammo ertasi kuni Jirafa darsga juda ham  
kafa bo'lib kelibdi.

Undan "Nega kayfiyatting yo'q?" deb so'-  
rahanganda, u kecha ustozni bergen kitobni  
kechqurun yarim tungacha o'qiganini, keyin  
eno uylab qolganini ayтибди.

– Ertalab tursam, kitob yer-u ko'kda yo'q!  
Hamma yoqni qidirdim, biroq topa olmadim,

= debdi Jirafa tushkunlikka tushib.

Hu yerdа o'tirgan o'quvchilardan birining  
ishi etonligini anglabdi va kitob o'g'risini to-  
plish uchun ozgina ayyorlik ishlatiбdi.

= Xata bo'lma, Jirafajon, tez orada biz ki-  
tobni kim o'g'irilaganini bilib olamiz, – debdi.

= Qunday qilib?! – so'rabi Jirafa.

= Hu juda oson. Kim kitobni olib o'qigan  
bo'lha, yaqinda uning ham bo'yiali cho'zilib  
qoladi. Chunki kim kitob o'qisa, aqli ham,  
ho'yilham o'sadi-ku, – debdi.

= Hu adolatdan emas, nima uchun faqat  
jirafaning bo'yи uzun bo'lishi kerak?! Kitob-  
ni men olgan edim, mening ham shu kitobni  
o'qgin kelyapti, axir, – debdi Maymuncha  
boshini xam qilib.



Ukki ustoz kitobni kim olganini bilib, juda kursand bo'libdi. Axir, Maymuncha u shoxdan-bu shoxga sakrab, umuman kitob o'qishni tashlab qo'ygan ekan-da.

Lekin buni Maymunchaga sezdirmabdi.

— Maymunjon, agar bilsang, bo'yи uzunlikning aqli uzunlikka zarracha bog'lilik joyi yo'q. Sen ko'p kitob o'qisang, bilim olasan, sening onging o'sib, dono Maymunga aylanasan. Katta bo'lganingda esa o'zing xohlagan kasb egasi bo'lasan. Sizlar kamroq shirinlik, muzqaymoq yeb, o'rniga ajoyib kitoblar sotib olib o'qisangiz bo'ladı. Bu sizni komillikka yetaklaydi.

Maymunjon Ukki ustozning gaplaridan juda ta'sirlanib, kitob o'qishga juda qiziqib qolibdi. Endi u pullarini keraksiz narsalarga sarflamasdan, o'rmondag'i kitob do'konidan qiziqarli kitoblar sotib olib o'qiydigan bo'libdi.

Yillar o'tib Maymunjon mana shu o'rmonda Ukki ustozning o'rniga ustoz bo'lib yetishibdi. Uning ko'plab kitobsevar shogirdlari bo'lgan ekan.

### MAYNA BILAN ESHAK

Von yashil yaylovda bir Eshak o'tlab, shashotib kun kechirar edi.  
Könlordan bir kuni shu yaylovga bir daydi Mayna uchib kelibdi. U baland daraxt shoxida qo'nib, g'um bilmay shataloq otayotgan lishakta debdi:

— Hoy, Eshakovoy! Sen bu taqir yaylovda o'moqlasun? Men bundan-da so'lim joylarni tilaman. Umrig'ni bu yaylovda bekor o'tkazmal Men bilan yur, yaqinda qish keladi. Yemish idlab holing tang bo'ladı. Men aytgan joylarha qishin-yozin yemish mo'l.

Daydi Maynaning gapiga ishongan Eshak unga ergashibdi.

– Sen aytgan so'lim joyga borganim bo'lsin!  
Yo'l yuribdilar, mo'l yuribdilar. Tog'lar osha bir qishloqqa yaqinlashibdilar.

– Mana bu qishloqda odamlar yashaydi. Sen ularning xizmatini qilasan. Ular seni issiq joy va yemish bilan siylaydilar, – deya Eshak-voyga tushuntribdi Mayna.

Eshak rozi bo'libdi. Bir bog' beda yeyish uchun kun-u tun mehnat qilibdi. Gohida ega-sining savalab urishlariga ham chidabdi. Bir kuni oqshom Eshakvoy o'ziga o'zi deb-di:

– Eh, men eshak, nodon bo'lmasam, shu yerlarga kelarmidim?! Bu yerlarda bo'ynim-ga sirtmoq boylatib xo'rlanganimdan ko'ra, tinchgina o'zimming jonajon yaylovimda yur-sam bo'lmasmidt!

Eshakvoy ko'p afsus-nadomat qilibdi va yarim kechasi uydan qochmoqchi bo'libdi. Buni sezgan shu uyning sodiq qo'riqchisi Kuchukboy Eshakvoyning yo'llini to'sibdi.

– Vov-vov, qayerga ketmoqchisan?

– Men o'z uyimga – yaylovinga qaytmo-qchiman! O'zimming jonajon yaylovinni sog'indim! Daydi Maynaning gapiga quloq

solib adushibman. Meni qo'yib yubor, Ku-chukboy, tog'lar oshay, o'z uyimga boray! – dehdi Eshak.

– Vov-vov-vov! Yo'q, sen eganga kerak-sarl soni qo'yib yubordilmayman!

Kuchukboy vovullab Eshakning yo'lini to'sib turaveribdi. Uning ovozidan uyg'ongan uyegasi Eshakning qochmoqchi bo'lganini bilib qollibi.

– Ha, yashamagur Eshak, qochmoqchi bo'l-dimi hal? Hozir men senga ko'rsataman qochish qanaqa bo'lishini! – deb uy egasi Esh-akni rosa kaltaklaldi.

Eshakvoy og'riqning zo'ridan jonholat-da devor osha sakrab qochibdi. Ortidan Ku-chukboy rosa quvlabdi, lekin Eshakvoyga yetib tolmabdi.

Eshakvoy yugura-yugura daryodan ke-chibdi, tog'lardan oshibdi va o'zining tanish, jonajon, yan yashil yayloviga yetib kelibdi. U kursandligidan yaylovda shataloq otib o'ynabdi, U hech qayerda o'z yaylovidan yax-shi, so'lim, tinch makon yo'qligini tushunibdi.



## O'RIK DANAGI

Kunlardan bir kuni mitti chumoli yerdida yotgan O'rik danagini ko'rib, iniga olib kirmoqchi bo'libdi.

– Ey, Mitti Chumoli, tinch qo'y meni, – debdi O'rik danagi.

Unga javoban Chumoli kulibdi.

– Sen hali gapirishni bilasamni?

– Albatta, bilaman! – debdi O'rik danagi.

– Seni qishga yemish uchun olib ketmoqchi edim, o'ylab qarasam, yemishlikka ham arzimas ekansan. Po'sting qaln va qattiq ekan, – debdi Chumoli. – O'zi sen kimsan?

Men... Men daraxtman, – debdi O'rik da-nagi.  
Atofdha O'rik danagi va Chumolining suh-hatini o'shitib turgan Xo'roz, Tovuq, Qarg'a, Mayna va boshqalar O'rik danagining ustidan roni kulisibdi.

– Qu qu-qu-quq, daraxtmish, sen hatto biz-liga yemishlikda ham arzimaysan, Chumoliga yir' bo'lain. Po'sting qalin va qattiq. Yaxshisi, bu jopni boshqa hech qayerda aytma, – debdi muhamadona Xo'rozcha.

– Men katta bo'lsam, albatta, daraxt bo'lam! Bu mening eng katta maqsadim, – debdi O'rik danagi.

= Qaq'-qaq'-qaq', Agar sen daraxt bo'lsang, unda men katta bo'lsam, Oqqush bo'larkan-mon-da, – deb uning ustidan kulibdi Qora Qorg'a ham.

Lekin O'rik danagi ularga e'tibor bermabdi.

– Huni menga bobom aytgan. Katta bo'l-sin! Menga o'xshagan katta, baland va ba-qaynat daraxt bo'lsan, degan.

– Ular yana va yana maroq bilan mitti O'rik danagining ustidan kulishibdi.

Bu gaplarga O'rik danagi parvo ham qilinibdi. Lekin O'rik danagining yonidagi Gilos

danagi tushkunlikka tushib, xafa bo'lib qolib-di. O'rik danagi qancha ovutmasin, u xafa bo'lib, yer ostidan qurgan shinam uyiga kirib ketibdi. O'rik danagi ham o'zi qurgan yeroстии kulbachasiga kirib, uyquga ketibdi.

Kunlar o'tibdi, oylar, yillar o'tibdi, faslar  
almashib O'rik danagi kattakon O'rik daraxtli  
bo'shib ulg'ayibdi. U o'zini kansitgan, massxara  
tilmaz Chumoli yo'roz Tovnava Oarg'agavigob

Gohida yomg'ir-u qorli, quyoshning jazirama  
kunlarida ularga panoh bo'sib, bag'triga olar  
ekan. Biroq O'rik daraxtining do'sti Gilos da-  
nagi esa necha yillar kutsa hamki, hech bo'y  
cho'zib ko'zga ko'rinnabdi. Chunki u uloq-t  
tirilgan ta'nna toshlarining qurboni bo'sib, o'zi  
ga bo'lgan ishonchidan voz kechibdi va yen  
qa'rida bir umrga qolib ketibdi. O'rik danag  
esa atrofdagilarning gap-so'zlariga e'tibor  
qilmay, o'zining buyuk maqsadiga intilibdi va  
unga erishibdi. Har kim atrofdagilarning sal  
biy fikrlariga quloq solmasdan, o'z maqsad  
lari sari olg'a intilsa, albatta, orzulariga yetadi

SHOSHQALOQ UZUNQULOQ

Qadim zamonalarda bir o'rmon bo'lgan ekan. U o'rmonning nomi "Tinchlik" ekan. Sherson bosbehiligidagi bu o'rmonda tinchlik va adolat qaror topgan ekan. U yerde katta yu kichik hayvonlar teng huquqli ekan. Qonun-qoidalarga riya qilmagan barcha hayvon u Joniyorlar qattiq jazoga hukm qilmaq ekan. Itar qadamda o'rmon tinchlikni qo'rqilovchi shoqollar kecha-yu kunduz mu'shabil qillishar ekan. O'rmon chegaralariidan har qisqat bivorta begona qush ham uchib o'tolmas ekan. Barcha hayvonlar ahil-inoq ha-yot huchkashar ekan.

Qayonvoy bilan Toshbaqa juda qain do'stligini qilgan ekan.



Bir yili qish qattiq kelibdi. Kunlarning birida Quyonvoy o'z uyidan ancha olisda yashaydigan Quyonoy xolasinikiga mehmonga ketibdi. Chunki o'z uyining tomidan chakka o'tib, Quyonvoy Quyonoy xolasinikiga borishga majbur bo'lgan ekan. Do'sti Toshbaqa shinamgina uyida bahorgacha birgalikda yashashga Quyonvoyni ko'ndira olmagan ekan.

Quyonvoy shoshgancha qishning ayozli kunlarida Toshbaqaboy bilan xayrashib, xolasinikiga ravona bo'lildi. Bahor kelsishi bilan Quyonvoy sakrab-sakrab, qo'shiq kuylab uygaga yo'l olibdi.

Uyiga yaqinlashib qolganda Quyonvoy uydan do'sti Toshbaqaboy uning eskirib ketgan uy jihozlarini olib ketayotganini ko'rib qolibdi.

Buni ko'rgan Quyonvoy do'stidan juda ranjibdi.

- Eh! O'zi bir kambag'al quyon bo'lsam! Shu chakka tomib, ado bo'lgan jihozlarimni yam o'g'irlab ketmoqchi! Qani oqibat!

Quyon xafa bo'lib, shoshgancha ortiga qaytibdi. Bo'lgan voqeani Quyonoy xolaga ayтибди. Quyonoy xola esa buni, albatta, Shoqolmirshabga ayfish kerak, deb ko'chaga chiqibdi va bor gapni Shoqolbiyga ayтибди. Bu gapni eshitgan Shoqolbiy qilichini yalong'ochlab,

hishlarini qayrab, bir zumda Toshbaqaboyning yonida paydo bo'lildi.  
= Xo'sh, Toshbaqaboy, ayt-chi, bu sudrab olib ketayotgan Jihozlaring kimmiki? – deb idarahdi Shoqolbiy ko'zlarini olaytirib, tishlari iqtishirlatib.

= Quyonvoyni! – deb javob beribdi Toshbaqaboy.

lidi onon hal bo'lildi. Aybdor aybini bo'yning o'zi oldi, deb Shoqolbiy Toshbaqaming qo'lligiga hishan taqib, o'rmon shohi Sherxonning yoniga sudrab ketibdi.

Vonom sabaq o'rmonga tez tarqalibdi. Aybdor barchanling yonida jazoga tortilar shani.

Harcha hayvonlar – Ayliqjon, Bo'ribek, Tulkin, Maymunjon va bir gala qushlar hukm o'lqidigan joyga to'plana boslashibdi.

Quron Quyonvoy u yerga borishni istamabdi. Niini bo'lganda ham Toshbaqaboy uning do'sti odi da. Lekin "Jnoyatjazosiz qolmasligi korak" dojan qat'ly qoida o'rmondag'i ulkan danashtarning barchasiga qoqib qo'yilgan shani.

Quyonvoy o'z uyiga yetib kelibdi. Eshikni olib, o'zining tashlandiq uyiga kiribdi. Kiribdi yuqo, o'z uyini ko'rib, og'zi lang ochilib qolibdi. Chunki uning xaroba uyidan asar ham yo'q

ekan. Hamma joy top-toza, tomdan chakka o'tgan joy ta'mirlangan ekan. Issiq pechka qurilgan, xona saranjom-sarishta, eski jihozlarining o'rniga yap-yangilari o'rnatilgannish. Devorga esa "Uyingga xush kelibsан, do'stim!" degan yozuvli taxta osig'liq turgannish.

Quyonvoy bu do'sti Toshbaqaboyning ishi ekanligini tezda fahmlabdi. Shoshqaloqlik qilib, do'stining yaxshililiga yomonlik bilan javob qaytarganini tushunibdi. O'rmondoshlari yig'ilayotgan tepalikka tomon chopibdi. U shunaqangi tez yuguribdiki, bir zunda o'sha yerda paydo bo'libdi. Quyonvoy Sherxonning yoniga borib, bo'lgan voqeani yig'lab aytib beribdi va do'sti Toshbaqaboydan kechirin so'rabdi.

– Shoshqaloqlik qilib, yomon gumonga bortibman. Do'stimni qattiq ranjiddim. Iltimos, Toshbaqaboy, meni kechir! – deya ho'ng-bo'ng yig'abdi Quyonvoy.

Sherxon esa Quyonvoysi qarab:

– Eh, shoshqaloq! Uzunquloq! Endi hech qachon shoshhib hukm chiqarma! Shoshqaloqlig qilma, – debdi.

Toshbaqaboy do'sti Quyonvoysi kechirib-di. Chunki u juda ham bag'rikeng va dono ekan. Quyonvoy endi har bir gapini o'ylab ga-piradigan bo'libdi.



### USTOZ G'OZ

G'o'zal bir qabloqdu parrandalar makoni hujigan chan U yerda Xo'roz, Tovuq, O'rdak, O'rez, Kaptar, Tovus va boshqa qushlar yashar ebta.

Kuntardan bir kuni Goz parrandalar uthun matalab ochibdi. Maletabga barcha parandalarning polaponlarini taklif qilibdi.

Hakimdonishlar esa Gozning ustidan kuchibell.

"And, o'zing ep lab suzolmasang, tongda qiziqrimasang, yaxshi ucholmasang, bizning imolapindan imizda dars bera olarmidir?!" – deyibutibdi ular.

Xo'roz, Qarg'a, O'rdak va boshqa qushlar G'ozning ustidan kulib, uning kamchilik va no'nogqliklarini aytilib, masxara qilibdi.

G'oz ularga javoban: "Balki, men siz kabi mohir suzuvchi, ko'kka uchuvchi emasdirman, ovozim xunukligini ham bilaman. Lekin men kitob o'qiganda, dengizdagi baliqlardek suzaman, lochindek ko'kka parvoz qilaman. Men polaponlaringizga bilim bermoqchiman. Kitob o'qishni, yozishni, rasm chizishni, kat-talarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lismi, odobnini, birovlarining ustidan kulish yomon odat ekanligini o'rgataman", – debdi.

Barcha parrandalar o'zlarini aytilib, gaplaridan xijolat bo'lib, ustoz G'ozdan urz so'rashib-di va polaponlarini G'ozning maktabida ta'lim olish uchun olib borishibdi.

G'oz yoz bo'yisi o'quvchilariga dars beribdi. Uning shogirdlari tezda o'qish va yozishni o'rganishibdi. A'lo baholarga o'qib, ota-onalarini xursand qilishibdi. Barchalari Ustoz G'oz-ga minnatdorchilik bildirishibdi.

Qadim zamonalarda, qalil to'qayzorda Toshbaqa bilan Qarg'a qalim do'st bo'llib, bir-jahashib ko'p sinovli, yaxshi va yomon kunlar ni boshadan o'tkazishgan ekan.

Ular ancha qarib, Toshbaqaning kosasi doq'albohib, og'irlashganidan yanada sekin yuradijan. Qarg'aning rangi yanada qorayib ketib, engina uchua, horib qoladigan bo'llibdi. Ular hatto yomish topishiga ham qynalib, ochlikda qelgan kunlari ham bo'lar ekan.

Junday konlarning birida Qarg'a do'sti Toshbaqa.

– Di'atim, mana necha yildirki, bizlar birga shu to'qayzorda kun kechiramiz. Yaxshi-yozmon hokimlikka bo'lgan. Mening bir orzum bor. Mata bo'lmasung, shuni senga aytsam, – dedi.

– Hoxiqqa ozu ekan, Qarg'avoy?!" – qiziqib no'g'ibdi Toshbaqa.

Qarg'a engina xijolat bo'lgandek bir-ikki yo'nalib:

– To'qayzor chetidagi jarlkeden seni pastiga olmabraman u, keyin uchib borib, sening go'zhongidan nata qilib tanovul qilsam, bu domiydan armoniyl ketardim. Axir, sen ham

## TOSHBAQA BILAN QARG'A


qarib qolding, mana necha kundirki, yemish topolmay xor-u zorsan. Baribir, abadiy yasha-

maysan-ku, do'stim, – debdi uyalmasdan.

Buni eshitgan Toshbaqa Qarg'adan juda qattiq xafa bo'libdi. Lekin buni Qarg'aga sezdirmabdi.

– Mayli, Qarg'avoy, sen aytgancha ham bo'la qolsin. Faqt mening ham bir orzum bor. Huv anavi baland tog'ni ko'ryapsamni? Ana o'sha tog'ning cho'qqisiga chiqishni bir umr orzu qilgaman. Shu tog'ga chiqsam, armonim qolmasdi. Keyin o'sam ham mayli, – debdi Toshbaqa.

Buni eshitgan Qarg'a:



– Unda pay-salga solmaylik. Ketdik bo'imsa! – deb Toshbaqaga yo'l ko'rsatibdi.

Bechora Toshbaqa yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oi-yinchiliklar bilan zo'r'g'a toshlardan sirpanib, dumalab, yiqilib va nihoyat tog'ning cho'qqisi-

ja chiqibdi. U tog' cho'qqisidan atrofga qarar-kon, bi-umrik orzusiga yetganidan baxtiyorlik tuyibdi.

Shu payt qayerdandr tog' burguti paydo bo'libdi-yu, Toshbaqani o'tkir tinoqlari bilan qisib, osmoniga ko'taribdi. Burgut o'jiasini yuanda yuqoriga ko'tarib ucha boshlabdi. Iloni ko'rgan Qarg'a:

– Eh, ahmoq Toshbaqa! Tinchgina seni jarlikka uloqtirib yesam bo'masmidi?! Tog' cho'qqisiga chiqib nima naf ko'rding?! Ana turgunga o'lia bo'llib o'tiribsan, – deb baqiridagi.

– Nomard do'sting qo'llida jarlikka qu-

lib, qora qushga yem bo'lguncha, tog' cho'qqisidan turib, qushlar shohi Burgutning pan-judan o'llim topishni afzal bildim. Bilsang, jarlikka qulab o'lishdan ko'ra, cho'qqini zabit etib o'lih qonchilar zavqli! – debdi Toshbaqa pastda zo'r'g'a unga qarab qanot silkib turgan qari Qarg'aga yuqoridan mag'rur-boqib.

Hu suhbati eshitgan Burgut esa Toshbaqni osmonidan pastiga uloqtirish fikridan yox ko'chibdi. Uni so'llim, yam-yashil o'tloqli yodilga olib borib qo'yibdi.

U yerda Tonbaqa yangi do'star orttirib, yangi hayot boshlabdi.

## ANOR BILAN SHAFTOLI

Qadim-qadim zamonda, bizdan olis tomonda, juda go'zal makonda bir katta bog' bo'lgan ekan. U bog'da Olma, Anor, Gilos, Behi, O'rik, Uzum, Xurmo, Shaftoli va boshqa ko'plab mevali daraxtlar bo'lgan ekan.

Kunlardan bir kuni mevalar ichida eng mahmadona, o'zini hammadan ham shirin va go'zal deb biladigan shaftoli o'zining mevalar shohi deb atalishini istab qolibdi. Bog'dagilar ni birvarakay o'ziga qaratib:

Menga toj kerak, – debdi.

– Bu bog'da hammamiz ham mazalimiz. Nima uchun sen shoh bo'lishing kerak? – deya savol beribdi jaiji Olcha.

– Chunki men bog'ning qoq o'rtaSIDAMAN. Hammadan chiroyli, aqli va donoman! Men bo'lmasam, sen bo'larmidung, mitticha! – debdi Shaftoli.

– Men ham bog'ning markazidaman, – deb e'tiroz bildiribdi viqor bilan dono Yong'oq.

Shaftoli bog'dagi barcha mevalar bilan urishib, o'zining haq ekanligini, faqat u toj kiyishga munosibligini aytaveribdi.

Bog' chetiga ekilgan Anor esa bahsga qo'shilmasdan chechkada ularni kuzatibdi. Shunda Olma Anorga debdi:

– Nega sen mevalar shohi bo'lishga intilmayapsan?

– Tolga yo'l bo'lsin menga! Axir, shuncha shirin, darmondori, chiroyli mevalar bo'la-diyu, meni tanlashadimi?

– To'ppa-to'g'ril!

– Mana shu yoqimsiz Anordan ham shu-nqa aqli gap chiqdi-ya! Sizlar esa haliyam tojni men bilan talashyapsizlar! – debdi Shaftoli.

Shu payt boqqa quzg'unlar hujum uyushtribdi. Quzg'unlar shohi mevalarga taslim bo'lishlari kerakligini, yo'qsa, bog'ni talon toroj qilib, chakalakzorga aylantirishlari aytibdi. Quzg'unlar va mevalar o'rtaSIDA ayovsiz jang boshlanibdi. Shaftoli shu zahoti jangdun qochibdi. Qolgan barcha mevalar quzg'unlar bilan jangda juda toliqishibdi. Anor kuzatib tursa, ishlar chattoqmish.

– Bog'n ni quzg'unlarga berib qo'yymaymiz! – deb baqirib, u ham jangga qo'shilibdi.

U mevalarini shunaqangi to'xtovsiz, aymadan otibdik! Har biri nishonga aniq tegib, koy quzg'unlar og'ir jarohat olishibdi. Nati-

jada quzg'unlar holdan toyib, barchasi taslim bo'lib, bu yerlarga boshqa qaytib kelmaydigan bo'lib uchib ketishibdi.

Bog'da barcha mevalar juda holdan toygan bo'lissa-da, Anorni olqishlashibdi. Barcha mevalar bir ovozdan Anorni mevalar shohi bo'lishini, toja faqat Anor munosib ekanligini, uning kamtarligini, dovyurak, qo'rqnas, mard, botir Anor ekanini aytishibdi.

U Vatanini dushman quzg'unlar changalidan qutqarib, qahramonlik ko'satganligi uchun barcha mevalar nomidan toj kiydirilib, mevalar shohi maqomi berilibdi.

**M** Shaffoli esa o'zining qilgan ishidan uyalib, yuzlari qizarib qolibdi. U barcha mevalardan kechirim so'rabi va bog'da qolishi uchun ruxsat berishlarini iltimos qilibdi. Oqko'ngil mevalar Shaftolini kechiribdi. Shu-shu Shaftolining yuzlari qizargan, Anor esa boshidagi toji bilan qolibdi.

## MUNDARIJA

luqmon Bo'rixon. Toza qalb bitiklari.....	3
llast kallti.....	5
Qarg'a bilan Bulbul.....	8
luri bilan Tulkil.....	11
Or'ichon va Bo'taloq.....	14
Shirin mevalar.....	17
Io'joso'voz.....	20
Ashari va Tanbal ari.....	22
Kalamush.....	25
Chol va qizz olmalar.....	28
Chin dor'stlk.....	30
Riuh o'g'ilugan Maymun.....	33
Maymun bilan Eshak.....	37
Orik danagi.....	40
Shoshuqloq Uzunquloq.....	43
Iztoz Goz.....	47
Toshloqa va Qarg'a.....	49
Anor bilan Shaftoli.....	52

2.185 том

UOK: 821.512.133-32  
KBK: 83.3(50'zb)

J87

Jumanova, Tozagul.

Baxt kaliti [matn]: (*Ertaklar*) / T.Jumanova.  
- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 56 b.

*Adabiy-badiiy nashr*

TOZAGUL JUMANOVA

BAXT KALITI

*Ertaklar*

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharrir: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahhib: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCH]

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.  
100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

© (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:  
Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90<sup>1</sup>/<sub>32</sub>'  
Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1, 75.  
Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №378.

"AZMIR NASHR PRINT" MCH]

bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri,  
Dzhumashayev Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

(УЗАРДАМ АДАМ РАХМАТ ҚОЧСИ)